

AZIM SUYUN SHE'RLARIDA TABIAT RAMZLARINING IFODALANISHI

Ashurova Zarina Ilhom qizi

NavDU ning "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi birinchi bosqich magistranti

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.12.2025

Revised: 18.12.2025

Accepted: 19.12.2025

Ushbu tadqiqot Azim Suyun ijodida foydalanilgan tabiat ramzlari, ularning timsoliy ma'nolari, g'oyalarini o'rganadi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, shoir bu obrazlardan turli hayotiy mavzularni tasvirlash uchun foydalangan.

KALIT SO'ZLAR:

*obraz, ramz,
tasavvuf, ishq, pozitsiya,
lirik qahramon, poeziya,
mumtoz adabiyot.*

Tabiat ramzlaridan foydalanish orqali turli qarashlarni ifodalash jahon adabiyotida uzoq yillardan buyon mavjud an'ana. Shoirilar yomg'ir, qor, shamol harakatlarini jonlantirish orqali ularni oddiy tabiat hodisasi emas, balki inson tuyg'ularidagi keskin holatlar, ijtimoiy hayot motivi, jamiyat a'zolari o'rtasidagi konfliktli vaziyatlarni aks ettirishda samarali foydalanadi. Shu boisdan, she'riyatda tabiat ramzlaridan foydalanish jahon ilmida keng o'rganilgan jarayon.

"She'riyatda tabiat ramzlari hayotiy mazmun-mohiyat kasb etadi,-deydi Rahima Sharipova "Yangi o'zbek she'riyatida tabiat ramzlarining badiiy talqini" nomli monografiyasida,- shu jihatdan yomg'ir, qor, bulut, shamol singari tabiat ramzlariga bag'ishlangan she'rlar o'ziga xos badiiy tizimni tashkil etadi".³

Ye.Shoxina yil fasllarining she'riyatdagi ma'nolarini o'rganar ekan, ular bilan bog'liq tabiat ramzlariga ham e'tibor qaratadi. Olimaning fikricha, R.A.Vyazemzkiyning "Birinchi

³ Rahima Sharipova Muxtorovna. Yangi o'zbek she'riyatida tabiat ramzlarining badiiy talqini.- Navoiy-2025.B.5

qor” she’rida shoirning istak-intilishlari aks etgan.⁴O‘zbek she’riyatida ham tabiat ramzlariga turli yondashuvlarni ko‘rish mumkin. Jumladan, Ozod Sharafiddinov A.Oripov she’rlaridagi yomg‘irning ramziy ma’noga egaligini quyidagicha asoslaydi:”A.Oripov pozitsiyasining kuchi sehri shundaki, u sizni sezdirmay, o‘z dunyosiga olib kiradi. Bu poetik dunyoda hamma real narsalar o‘z realligini saqlab turadi, biroq ayni chog‘da shoirning kechinmalari tufayli yangi sifatlar, yangi belgilar, yangi ranglar kasb etadi. Bu olamda ko‘kdan quyiluvchi yomg‘ir, ayni chog‘da, muhabbati rad qilingan oshiqning ahvoliga yig‘lovchi samoning ko‘z yoshlari bog‘larda lov-lov yongan xazon va ayni chog‘da shoir yuragidan to‘kilgan olov ko‘z yoshi esa-quyosh ayni chog‘da, olis yoshlikda qolgan muhabbat”.⁵

O‘zbek prozasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor Azim Suyun ijodida ham tabiat ramzlaridan o‘rinli foydalanilgan. Ammo adib ijodida bu borada o‘zgacha yondashuvni ko‘rishimiz mumkin.

Yaratgan Egamning yo‘rig‘i yorliq:

Oftob zamin uzra gulxan yoqadi.

Daryoga aylanib tog‘dagi qorliq

Chegara neligin bilmay oqadi.⁶

Yashash uchun kurash sarhad neligin bilmasligi haqida chiroyli tamsil(misol keltirish) ifodalangan ushbu she’rda ramzan insonning hayotsevarligiga ishora bor. Har qanday vaziyatda hatto tog‘dagi qor ham yaratgan bergan umrni yashashga oshiqadi. Hatto quyosh uning ustida “gulxan yoqib” eritsa ham, u daryo bo‘lib yashashni davom ettiradi.

Balandnazar qushlar, o, ozod qushlar,

Ko‘rdim: hur-hur, erkin-erkin ko‘chadi.

Bugun G‘arbda, ertan Mashriqda qishlar-

Chegara neligin bilmay uchadi.⁷

Qushlarning iqlim tanlab, joy almashishi tabiiy hodisa. Ammo uni shoir hayotsevarlikka mengzaydi. Qushlarday nozik jonzoqlar yashash uchun Mag‘rib-u Mashriqni kezar ekan, inson ham Olloh bergan umrni yashashga harakat qiladi.

⁴ Shoxina Ye.V.Smantika vremen goda v poezil pushkinskiy pory:AvtoREF diss.na soisk.uchen.step.kan.filol.nauk.-Voronej,2017.-S.9.

⁵ Sharafiddinov O.Hayot bilan hamnafas. – T.: Yosh gvardiya, 1983.-B.165

⁶ Azim Suyun.Muhabbat hayratlari. – Toshkent. :Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009.-B.50

⁷ Azim Suyun.Muhabbat hayratlari. – Toshkent. :Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009.-B.50

Ko'k bag'ri qora gulzor,
qora gulzor chaqmoqzor.
Sen tog'larning bag'rida,
Men sahroda senga zor.⁸

Adib "Ko'k bag'ri" she'rida yuqoridagi misralar orqali muhabbatning go'zal kechinmalarini ifoda etadi. O'zbek she'riyatida sevgini tarannum etuvchi asarlarda turlicha yondashuvlarga duch kelish mumkin. Bunda har bir shoirning individual uslubi mavjud. Xususan, Azim Suyun ijodida muhabbat motivini aks ettirishda mumtoz asarlar ta'siri sezilib turadi. Oshiqning ishq iztiroblari tunda jumbushga keladi. Tun osmoni tunning o'zidek, oshiqning azobidek qorong'u. yorug' yulduzlarga to'la osmon esa qora gulzor. Eng yaxshi sifatlariga ega dunyoda tengsiz yorning joyi esa yuksaklikda, ya'ni tog'da. Bu yerda ramzan Olloh nazarda tutilmoqda. Oshiq esa unga zid ravishda pastda- sahroda.

Oxiratning odami
ko'zin yoshlari qalqib
azonlar aytar emish
yantoq shoxiga chiqib.⁹

She'r davomida shoir sahro yomg'irini o'zgacha tasvirlaydi. Bu yomg'ir go'yo ilohiy ishq yomg'iri. Oshiq uchun visol umidi. Ular bejizga yantoq shoxiga chiqib azon aytmayapdi. Yantoq oshiqning sahro saratoniga ham chidamli bardoshi timsoli. Lirik qahramon holati keyingi misralarda yanada oydinlashadi:

O'shaning holi holim,
Sevgi azoni jonda,
na tongda eshitgaysan,
na eshitgaysan shomda¹⁰.

Oshiqning ahvoli yomg'irga tashna oshiq holatidek. Ammo sevgi azoni jondek ichkarida. Oshiq uni butun dunyodan qizg'anadi. Tongda ham shomda ham hech kimga eshittirmay yashirin saqlaydi.

Tog' soyasi uxlamas,
Seni erkalar mudom,
men sho'rlikning boshida

⁸ Azim Suyun. Muhabbat hayratlari. – Toshkent. : Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009. -B.50

⁹ Azim Suyun. Muhabbat hayratlari. – Toshkent. : Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009. -B.50

¹⁰ Azim Suyun. Muhabbat hayratlari. – Toshkent. : Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009. -B.50

qochar hatto soya ham. ¹¹

Tog' soyasi esa butun borliqni erkalaydi. Ammo oshiqni o'z mehridan bebahra qoldiradi. Uning boshidan hatto ishning soyasi ham qochadi. Tasavvuf adabiyotiga ko'ra ishq yo'lini tanlagan kishning yo'ldoshi mashaqqat. Yor esa(aslida Olloh) oshiq muhabbatini turli mashaqqatlar bilan sinovdan o'tkazadi.

Yana bir boshqa she'rida shoir:

Ortda qoldi ona oshiyon,

yo'llaringni bo'ronlar to'sar.

Uch! uchaver! Qo'rqma polapon,

Qanotlaring kurashda o'sar.¹²

deydi. Ushbu misralar orqali shoir yosh avlodni kelajakka dadil qadamlar ila odimlashga chorlaydi. Polapon ramziy ma'noda yosh avlod timsoli. Ona oshiyonni ortda qoldirib, uchishga undayotgan ijodkor parvoz davomida turli to'siqlar bo'lishini-da yoddan chiqarmaydi. Ammo bu bo'ronlar polaponga g'ov bo'lmasligi kerak. Zero har kim kurashda o'sish umidi bor. Shoir navbatdagi "Izlayman" she'rida:

Bu sahroda adashdim, obi ravon izlayman,

Saroblarga ko'z tikib qora karvon izlayman.¹³

deya hayot yo'llarida o'z yo'lini qidirayotgan inson timsolini gavdalandiradi. Sahro uzoq yillik umr ramzi. Bu yo'lda unga aniq bir tarafga oquvchi suv albatta kerak. Poyonsiz sahroda insonni yo'lidan chalg'ituvchi saroblar ham uchraydi. Lirik qahramon mana shu saroblar ortidan "qora karvon" qidiradi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: karvonning ranggi nega qora? "Qora" so'ziga eski turkiy til lug'atlarida "kuchli" "qudratli" kabi izoh beriladi. Demak, shoir "qora karvon" deganda to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi ulug' pir timsolini gavdalandiradi. "qora karvon" ortidan ergashgan yo'lovchi uzoq umr yo'lini mazmunli o'tkaza oladi.

Shoir o'z she'rlarida yashash mohiyatini, tasavvufiy g'oyalarni anglatish bilan bir qatorda ijtimoiy hayot motivini ham gavdalandiradi:

Shom shafag'i tog'larni quchmish,

Tun qo'yniga kirar dala qir.

Daraxtlarda chirsillaydi qish,

¹¹ Azim Suyun.Muhabbat hayratlari. – Toshkent. :Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009.-B.50

¹² Azim Suyun.Muhabbat hayratlari. – Toshkent. :Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009.-B.46

¹³ Azim Suyun.Muhabbat hayratlari. – Toshkent. :Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009.-B.106.

Ko'z tindirib yaltirar o'ngir.
Bunda to'xtab qolgan jilg'alar
To'nib qolgan yulduzlar ko'kda.
Shoda sirg'a taqqan jing'illar,
Bukchayishib turar oq yukdan.
Dilga hadik solar sukunat,
Bosib kelar qandaydir vahm.
Ko'pdan qo'noq qorli saltanat,
Sukutida bir sirli qahr,
O', buzilar bari nogahon,
Paydo bo'lar bo'ri galasi.
Bir do'nglikka chiqishib, shu on
Quturishib o'ynar barisi.¹⁴

Ushbu quyma satrlar o'tgan asrning turg'unlik yillarini o'zida aks ettiradi. Turg'unlik yillaridagi "sokinlik" qishdagi badanni junjikturuvchi sovuq sukunatga qiyoslanadi. Bu sukutda ham sirli qahr bor deydi shoir. Bu sukunat dilga qo'rquv soladi. Bunda hatto jilg'alar ham to'xtagan. She'rdagi bo'ri obrazi ham ramziy ma'no kasb etadi. Shoir xalqning og'ir ahvolidan o'z manfaati yo'lida foydalanadigan bir qator mansabparastlarni tanqid ostiga oladi. Qishning sovuq, yoqimsiz sukunatini buzadigan faqat shu bo'rilarining quturib o'ynashlari. Ular yuksaklarda turib xalq holidan kuladi go'yo.

Shoir she'rlaridagi ushbu ohangdorlik, serqirra ma'nolar, takrorlanmas g'oya kishi e'tiborini tortmay qolmaydi. Ularni shunchaki she'r emas, shoir tuyg'ularining qog'ozdagi tasviri, inson tafakkurining oliy ifodasi, davr muhit holati desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Rahima Sharipova Muxtorovna. Yangi o'zbek she'riatida tabiat ramzlarining badiiy talqini.- Navoiy-2025.B.5
- 2.Shoxina Ye.V.Smantika vremen goda v poiezil pushkinskiy pory:Avtoref diss.na soisk.uchen.step.kan.filol.nauk.-Voronej,2017.-S.9.
- 3.Sharafiddinov O.Hayot bilan hamnafas. – T.: Yosh gvardiya, 1983.-B.165

¹⁴ Azim Suyun.Muhabbat hayratlari. – Toshkent. :Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009.-B.53.

4.Azim Suyun.Muhabbat hayratlari. – Toshkent. :Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2009.-B.50

